O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 02 256
2026 yil “14**”** 07

“TASDIQLAYMAN”
Tarix fakul’teti dekani:
R.B.Abriyev
2026 yil “__” _____

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING O‘QUV DASTURI

(kunduzgi ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	5 000 000	Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	5 400 000	Matematika va statistika
Ta’lim yo‘nalishi:	60540100	Matematika
	60540200	Amaliy matematika

Samarqand-2026

Mazkur o‘quv dasturi tarix fakulteti Kengashining 2026-yil 1 - iyun dagi 10 -sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti** tarix fakultetining **“O‘zbekiston tarixi”** kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil 25 - may dagi 10 -sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

Vafayeva Dj.B. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU tarix fakulteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, t.f.n.

Shotemirova A.U. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU tarix fakulteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi assistenti.

Rahmonova P.B. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU tarix fakulteti, “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

O.Abdimo‘minov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy majmua bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori (DSc) (tashqi)

R.X.Murtozayeva – O‘zbekiston Milliy Universiteti professori, tarix fanlari doktori (tashqi)

B.E.Raximov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti (ichki)

1.	Fan ma’lumotlari							
Fan/modul kodi O‘EYT1104	**O‘quv yili** 2026-2027	**Semestr** 1					**ECTS – Kreditlar** 4	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek	**O‘quv rejadagi tartib raqami** 60540100, 60540200-1104					**Haftadagi dars soatlari** 4	
Fanning nomi O‘zbekistonning eng yangi tarixi	**Jami yuklama (soat)**	**Auditoriya mashg‘ulotlari jami – 60 soat, shundan:**						
		Ma'ruza	**Amaliy**	**Lab.**	**Sem.**		**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Kurs ishi**
	120	30			30		60	0

2.	Fanning mazmuni
Fanining maqsadi – talabalarga O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri ekanligi, o‘zbek xalqining boy tarixiy o‘tmishi va ma’naviy merosga egaligini anglatishdir. Shuningdek, talabalarga mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuz bergan ulkan o‘zgarishlar, jamiyat va davlat hayotining turli sohalarida amalga oshirilgan tub islohotlarning mohiyati, tarix fanining zamonaviy jamiyat ma’naviy asosidagi o‘rni va barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati haqida tushuncha berishdan iborat. **Fanining vazifalari** – talabalarni xalqimizning boy tarixiy o‘tmishi, xususan, o‘zbek davlatchiligi tarixi bilan tanishtirish, XX asr tarixining murakkab va ziddiyatli jihatlarini ochib berish, davlat mustaqilligi arafasidagi O‘zbekistonning murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli haqida ma’lumot berish, respublikada amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va boshqa sohalardagi islohotlarning mohiyatini tushuntirish hamda talabalarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishdir.

3.	Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar
1.	O‘zbekiston tarixi 10-sinf
2.	O‘zbekiston tarixi 11-sinf

4.	Ta’lim natijalari (TN)
	Kasbiy kompetensiyalar:
TN1	O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashning asosiy bosqichlarini bilish;
TN2	O‘zbekistonda demokratik davlatchilik va fuqarolik jamiyati shakllanishining mohiyati hamda xususiyatlarini tahlil qilish;
TN3	Talabalarda O‘zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari haqida tushuncha shakllantirish;

TN4	Talabalarda O‘zbekiston milliy mustaqillik mafkurasi haqida tushuncha hosil qilish;
	Ko‘nikmalar:
TN5	O‘zbekistondagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
TN6	Mustaqillik davrida O‘zbekistonning ma’naviy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlarni aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
TN7	Yangi O‘zbekiston mohiyatini tushunish;
TN8	O‘zbekiston Prezidenti va hukumatining ichki va tashqi siyosati mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘lish.

5.	**Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:**	**Soat**
	Ma’ruza (M)	**30**
M1	**Kirish. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv kursining predmeti, maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari.** *O‘zbekistonning eng yangi tarixi — O‘zbekiston tarixining ajralmas qismidir. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uning ahamiyati. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari. O‘zbekistonning eng yangi tarixining yuqori intellektual va ma’naviy jihatdan rivojlangan yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixiy xotiraning ma’naviy yetuk insonni tarbiyalashdagi roli va saboqlari haqidagi fikrlari. XXI asr globallashuv davrida ta’lim sohasida ushbu fanni o‘qitishda nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.* [1,2]	2
M2	**O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari. (1-ma’ruza)** *Davlatchilik tushunchasi. O‘zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Mamlakatimiz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Amir Temur — buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi. Turkistonning xonliklarga bo‘linishi, uning sabablari va oqibatlari. [1,2,3]*	2
M3	**O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy asoslari. (2-ma’ruza)** *Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimi davrida. Milliy-ozodlik harakatlari. Mustamlakachilik boshqaruvi va uning mohiyati. Taraqqiyparvar jadidlarning faoliyati hamda ularning mamlakat ma’rifiy va madaniy hayotidagi o‘rni. Sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaramligi hamda uning oqibatlari. Sovetlarning repressiv siyosati va uning mohiyati. [1,2,3]*	2
M4	**Mustaqillik arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.** *XX asrning 80-yillari o‘rtalarida respublikaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqiroz. “Qayta qurish” siyosati va uning O‘zbekistonga ta’siri. Markazning O‘zbekistondagi repressiv siyosati — “paxta ishi” yoki “o‘zbek ishi”. Aholi turmush darajasining pasayishi. Orol fojiasi. Farg‘ona voqealari. 1989-yil o‘rtalarida respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy o‘zlikni anglash va milliy manfaatlar ustuvorligining kuchayishi.[3,4]*	2

	Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989–1991-yillarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va ularning mohiyati. 1991-yil avgust voqealari (GKChP). Sovet davlatining inqirozi va parchalanishi. [2,3,4]	
M5	**O‘zbekiston mustaqil respublikasining tashkil topishining tarixiy ahamiyati.** *O‘zbekiston – o‘z taraqqiyot va rivojlanish yo‘liga ega davlat. Mustaqillik arafasida respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holati. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning dastlabki bosqichlarida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. I.A. Karimovning mustaqil O‘zbekiston davlatini barpo etish va mustahkamlashdagi tarixiy xizmatlari. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi qiyinchiliklar. Taraqqiyotning “o‘zbek modeli” va uning xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Normativ-huquqiy bazani yaratish, 1992-yilda Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy axamiyati. Davlat ramzlari. [1,2,4]*	2
M6	**O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish va siyosiy islohotlarni amalga oshirish.** *Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda boshqaruv tuzilmalarini yaratish tamoyillari. Ko‘ppartiyaviy tizimning shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalarning xususiyatlari. Parlament tizimi va ushbu sohadagi islohotlar. Huquqni muhofaza qilish va sud tizimidagi o‘zgarishlar. Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ularning respublikaning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlaridagi uumupoku. Ijtimoiy sheriklik. O‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi roli. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson xykykлapu va ularni himoya qilishni ta’minlash.* [1,3,4]	2
M7	**Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkni shakllantirish. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish.** *O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi: bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirish mexanizmi. Pul islohoti o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, ularning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoatning rivojlanishi, avtomobilsozlik. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, bank-moliya tizimini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish.,[1,2,3]*	2
M8	**O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohadagi islohotlari.** *Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi: bosqichlari va rivojlanishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimini yaratish. Aholining bandligi va real daromadlarini izchil oshirishga qaratilgan ijtimoiy sohani rivojlantirish. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, axolini uy-joy bilan ta’minlash. Yo‘l-transport sohasi, mashinasozlik, aloqa vositalari va infratuzilmani rivojlantirish. Davlat yoshlar siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalalaridagi uumupoku. Oila 5am o55ic va uning Yangi O‘zbekistondagi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. Gender tengligi. Ayollarga munosabat. Onalik va bolalik xykykларini himoya qilish. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va uning axolining*	2

	huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishdagi, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishdagi roli.[1,2,4]	
M9	**Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ma'naviy va madaniy rivojlanishi.** *Milliy mustaqillik g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarni tiklash. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tiborning ortishi. Buyuk ajdodlarning ilmiy merosi va milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha davlat siyosati. O'zbekiston tarixiy shaharlari – Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz, Qarshi, Marg'ilon yubileylarini nishonlash. Toshkent shahrining "Islom sivilizatsiyasi poytaxti" deb e'lon qilinishi va uning axamiyati.* *Mustaqillik davrida madaniyat va san'atning rivojlanishi. Yangi O'zbekiston – uchinchi renessans sari yo'l. Besh tashabbus va ularning yoshlarning yuksak ma'naviy madaniyatini ta'minlashdagi roli. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlar barqarorligini таъминлаш bo'yicha davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlar sohasidagi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san'at, tasviriy san'at, teatr va kino san'ati. Turizm sohasining rivojlanishi. Samarqand shahri – jahon turizmi poytaxti.[1,2,3]*	2
M10	**O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi islohotlar.** *Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va ularning mohiyati. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli. 1992-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning (1997-yil) qabul qilinishi. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar. Zamonaviy ta'lim tizimi sohasidagi davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri (2020-yil). Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.[1,2,3]*	2
M11	**O'zbekiston va jahon hamjamiyati. (1-ma'ruza)** *O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy hamda siyosiy aloqalarni o'rnatishi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va uning jahon hamjamiyatidagi roli. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. MDHdagi O'zbekistonning o'rni va rolining ortib borishi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorlik istiqbollari.[1,3,4]*	2
M12	**O'zbekiston va jahon hamjamiyati. (2-ma'ruza)** *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning o'zaro manfaatli hamkorlik va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan ochiq va shaffof tashqi siyosati. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston cuecamu. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda xalqaro terrorizm, narkotrafik va odam savdosiga қapшu kurashdagi faoliyati. O'zbekistonning SHHT bilan hamkorligini kengaytirish. SHHT Samarqand deklaratsiyasi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari hamda MDH mamlakatlari o'rtasida ochiq sheriklik bo'yicha yangi bitimlarning imzolanishi. Prezident Sh. Mirziyoyevning faol tashqi siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi. Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini mustahkamlash, ochiq, hamkorlik va faol tashqi siyosat yuritish.[1,2,3]*	2
M13	**Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.** *"O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini*	2

	yaxshilash hamda ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini davlat organlari va tashkilotlarida joriy etish" bo'yicha davlat siyosati. Normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi. Ushbu yo'nalishda samarali faoliyat yuritishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar. O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan choralar. "Biznes yuritish" indeksi, boshqaruv sifati ko'rsatkichlari, elektron hukumat rivojlanish reytingi, "Korrupsiyani qabul qilish" indeksi, "Logistika samaradorligi" indeksi, Jahon bankining statistik salohiyat indeksi, iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), risklarni tasniflash tizimi, inson taraqqiyoti indeksi, qonun ustuvorligi indeksi, dunyo mamlakatlari demokratiya indeksi, matbuot erkinligi indeksi va boshqalar.[3,4]	
M14	**Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida va tashabbusi bilan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar.** *2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi va uning natijalari.* *Milliy tiklanish g'oyasidan milliy yuksalish g'oyasi sari o'tish va uning axamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda referendum orqali qabul qilinishi (2023-yil 30-aprel). Konstitutsiya – XXI asr zamonaviy O'zbekistonining asosiy qonuni. O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasining mazmuni va ustuvor yo'nalishlari. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.[3,4]*	2
M15	**Yangi O'zbekistonda insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.** *2016-yil sentyabr oyidan virtual qabulxonalarning ochilishi. 2017-yildan 7am o7 davrda jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq jarayonlar, davlat organlarining xalq bilan aloqalarini kengaytirish, xalq qabulxonalari faoliyati va mahalla institutini yanada takomillashtirish. Sud organlari faoliyati va O'zbekistonda shaxs hamda inson хуқуқларini himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar. Inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali insonparvar ðaвлam qurish. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga zamonaviy yondashuv. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o'zgarishlar.[3,4]*	2

6	**Seminar mashg'ulot (A)**	**30**
S1	Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv kursining predmeti, maqsad va vazifalari, nazariy-metodologik asoslari.	2
S2	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari. (1-mashg'ulot)	2
S3	O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari. (2-mashg'ulot)	2
S4	Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar	2

S5	Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishining tarixiy аҳамияти. O‘zbekiston – o‘z taraqqiyot va rivojlanish yo‘liga ega davlat.	2
S6	O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish va siyosiy islohotlarni amalga oshirish.	2
S7	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkni shakllantirish. O‘zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish.	2
S8	O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy sohadagi islohotlari.	2
S9	Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy rivojlanishi.	2
S10	O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar.	2
S11	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati. (1-mashg‘ulot)	2
S12	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati. (2-mashg‘ulot)	2
S13	Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi.	2
S14	Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida va tashabbusi bilan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar.	2
S15	Yangi O‘zbekistonda insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.	2

7.	**Mustaqil ta’lim topshiriqlari***	**60**
1	IX–XII asrlarda yurtimiz hududidagi Uyg‘onish davri va buyuk olimlarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.	4
2	Jaloliddin Manguberdi – Vatan himoyachisi.	4
3	Amir Temur – buyuk davlat arbobi.	4
4	Mirzo Ulug‘bek – davlat arbobi va buyuk olim.	4
5	Jadid ma’rifatparvarlarining ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni.	4
6	“Qayta qurish” davrida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.	4
7	Mustaqillik arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.	4
8	Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar.	4
9	Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy-madaniy o‘zgarishlar.	4
10	O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati.	4
11	Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi islohotlar.	4
12	Yangi O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklari kafolatlari.	4
13	Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslardagi aks etishi.	4

14	O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.	4
15	O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi roli.	4

**Izoh: Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo‘lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)9am o‘ljallangan bo‘lishi kerak.*

7.	**Ta’lim texnologiyalari va metodlari**
	o ma’ruzalar; o interaktiv mavzuli tadqiqotlar; o seminarlar (bahs-munozara, tezkor savol-javoblar); o guruhlarda ishlash; o taqdimot himoyasi; o individual loyihalar.

8.	**Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar**
	Tarix faniga oid nazariy va metodologik tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini aniq ifoda eta olish, o‘rganilayotgan jarayonlarni mustaqil kuzatish va nazorat topshiriqlarini bajarish, yakuniy nazorat yozma ishini topshirish talab etiladi.

9.	**Talabala bilimini baholash mezoni**
	11) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: o fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa; o fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa; o fan bo‘yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasawurga ega bo‘lsa; o fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa; o berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;

- konspektga puxta tayyorlangan bo‘lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to‘liq va aniq bajargan bo‘lsa;
- barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan bo‘lsa; ➢ nazariy bilimlarni turli vaziyatda qo‘llash olish; ➢ tizimli yondashish, uzviylikka amal qilish.

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ➢ fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;

- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo‘yicha berilgan savollarga to‘g‘ri javob bera olsa;
- fan bo‘yicha konspektini puxta shakllantirgan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;
- barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa.

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilsa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa; ➢ bayon qilish ravon bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo‘yicha matn puxta shakllantirilmagan bo‘lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rilmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga doir hech qanday tasawurga ega bo‘lmasa;
- fan bo‘yicha mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajarmagan bo‘lsa;
- fan bo‘yicha matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa; ➢ fan bo‘yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa; ➢ fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa; ➢ fanni bilmasa.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik / R.H. Murtazayeva va boshq.– Toshkent: “Mehr-nuri nashriyoti”, 2024. – 408 b.(1:7;2,3:29; 4:79;5:141;6:141;
2. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: Darslik (Nomutaxassislik oliy ta’lim muassasalari professor o‘qituvchilari va talabalari uchun) / N.Oblomurodov, F.Tolipov. – T: “Iqtisodiyot-moliya”, 2022. – 412 b.
3. Саипова. К.Д. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Ташкент: NIF MSH, 2024.

4. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи. Масъул муҳаррир проф. Г.Б.Нормуродова. Самарқанд-2022. 171 бет.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Qoraqalpog‘iston tarixi. (1917-1994 yy). Nukus, 1995 yil.
2. Murtazayeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tollerantlik. Darslik, Toshkent, Mumtoz so‘z, 2019 yil.
3. Xoliqulov R., Ganiyev K., Nasrullayev M. O’zbekiston tarixi (Nomutaxassis yo’nalish talabalari uchun) Samarqand 2019.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови: 100 саволга 100 жавоб. – Т.: “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2021 й. – 56 б.
5. Тўхтабоева Д.Т. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи: маънавий янгиланиш, маданий тараққиёт ва ижтимоий ўзгаришлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2021.
6. G’afforov Y., Xoliyev A. O’zbekiston va jahon hamjamiyati. Toshkent “Universitet” 2023 yil (132 bet).
7. Ўзбекистон тарихи (Хоразм тарихи) XI Жилд. Ўзбекистон тарихи ва манбалари / A.C. Сагдуллаев. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2023. – 632 б.
8. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. 1-2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.. 5 10.
9. Xolxujayeva Y.U. Yangi davr tarixi (O‘quv qo‘llanma). Samarqand: SamDU tahririy nashriyoti, 2025. – 364.
10. Замонавий Ўзбекистон иқтисодий-ижтимоий-сиёсий жараёнлар, халқаро ва минтақавий муносабатлар. Монография. Масъул муҳаррир: М.А. Рахимов. – Тошкент: “Akademnashr”. 2025. – 336 б.

Axborot manbalari

11. www.ziyonet.uz.
12. www.edu.uz.
13. www.google.uz.
14. www.gov.uz.
15. www.lex.uz -
16. https://gov.uz/oz/edu
17. https://devedu.uz/

Kafedra mudiri: **dots. Narmanov F.A.**

Fan ma’suli: **prof. Vafayeva Dj.B.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti nomutaxassis yo'nalish talabalari uchun "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Taqdim etilgan «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining o'quv dasturi oliy ta'lim muassasalarida tarixiy bilimlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etish, talabalarning milliy davlatchilik tarixi va mustaqillik davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilgan muhim o'quv-meyoriy hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturida fanning maqsad va vazifalari aniq belgilangan bo'lib, unda O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li, davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy siyosat, ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan ishlar hamda mamlakatning xalqaro munosabatlardagi ishtirokiga oid masalalar kompleks tarzda yoritilgan.


Dasturning o'ziga xos jihati shundaki, mavzular mazmuni tarixiylik, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida shakllantirilgan. Har bir mavzu talabalarda mustaqil fikrlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish va ularga nisbatan asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dasturda O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari va konseptual yondashuvlardan samarali foydalanilgan.

Fanning mazmuni talabalarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi, demokratik qadriyatlarning qaror topishi va Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlarining yoritilishi ta'limiy hamda tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturida nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularning mavjudligi talabalarning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Baholash tizimi va o'qitish usullari zamonaviy

pedagogik texnologiyalarga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, dasturda shakllantirilishi ko'zda tutilgan kompetensiyalar talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, manbalar bilan ishlash madaniyatini yuksaltirish va kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan tahliliy yondashuvlarni egallashlariga imkon yaratadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining mazkur o'quv dasturi mazmunan dolzarb, ilmiy va uslubiy jihatdan puxta ishlangan bo'lib, amaldagi davlat ta'lim standartlari talablariga to'liq mos keladi. Ushbu dasturni oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga joriy etish va foydalanish uchun tavsiya etish mumkin.



Abdimuminov Oybek Bektemirovich,
Tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
O'zbekiston Respublikasining
Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiriy yodgorlik majmuasi
muzeyi direktori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti barcha nomutaxassis yo'nalish talabalari uchun "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

Mazkur «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat ta'lim standartlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalari talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarda mamlakatimiz taraqqiyotining mustaqillik davriga oid muhim tarixiy jarayonlar haqida mukammal bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

O'quv dasturining maqsadi talabalarga O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, milliy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari, iqtisodiy islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarda mamlakatning o'rni hamda ahamiyati to'g'risida chuqur va tizimli bilim berishdan iboratdir.

Dastur mazmuni zamonaviy tarixshunoslikning yutuqlari va konseptual yondashuvlari asosida shakllantirilgan bo'lib, unda O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, mustaqillikning qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati, davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar kabi dolzarb mavzular o'z ifodasini topgan.

O'quv dasturida nazariy bilimlarning amaliyot bilan uzviy bog'liqligi ta'minlangan. Mavzularning mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilganligi talabalarning tarixiy voqealar va jarayonlarni yaxlit holda anglashlariga, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda mustaqil ta'lim, amaliy mashg'ulotlar va baholash tizimining o'zaro uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Fanning o'quv dasturida talabalarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, tarixiy haqiqatni ilmiy asosda baholash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa yoshlarning Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda milliy manfaatlarni anglash darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Dasturda nazarda tutilgan ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar va baholash mezonlari xalqaro ta'lim amaliyoti talablariga mos keladi. Fan bo'yicha shakllantiriladigan kompetensiyalar talabalarning kasbiy va umummadaniy salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil qaror qabul qilish va tarixiy jarayonlarga xolis baho berish qobiliyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

O'quv dasturining yana bir muhim jihati shundaki, unda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan yangilanish jarayonlari tarixiylik va vorisiylik tamoyillari asosida yoritilgan. Bu esa talabalarning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalarini anglashlariga va ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining mazkur o'quv dasturi mazmun jihatidan boy, ilmiy-nazariy va uslubiy tomondan puxta ishlangan, davlat ta'lim standartlari talablariga to'liq javob beradi. Dastur talabalarda chuqur tarixiy bilimlarni shakllantirish, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan mazkur o'quv dasturini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi: O'zbekiston Milliy Universiteti professori, tarix fanlari doktori R.X.Murtozayeva

O'z MU KB katta inspektori
05. 06 2026

XODIMLAR BO'LIMI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti barcha nomutaxassis yo'nalish talabalari uchun "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining o'quv dasturiga

TAQRIZ

O'quv dasturining maqsadi talabalarga O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, milliy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari, iqtisodiy islohotlar, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarda mamlakatning o'rni hamda ahamiyati to'g'risida chuqur va tizimli bilim berishdan iboratdir.

«O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat ta'lim standartlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalari talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarda mamlakatimiz taraqqiyotining mustaqillik davriga oid muhim tarixiy jarayonlar haqida mukammal bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

Dastur mazmuni zamonaviy tarixshunoslikning yutuqlari va konseptual yondashuvlari asosida shakllantirilgan bo'lib, unda O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, mustaqillikning qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati, davlat boshqaruvi tizimining takomillashuvi, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari, ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari tamoyili asosida amalga oshirilayotgan islohotlar kabi dolzarb mavzular o'z ifodasini topgan.

O'quv dasturida nazariy bilimlarning amaliyot bilan uzviy bog'liqligi ta'minlangan. Mavzularning mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilganligi talabalarning tarixiy voqealar va jarayonlarni yaxlit holda anglashlariga, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda mustaqil ta'lim, amaliy mashg'ulotlar va baholash tizimining o'zaro uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Fanning o'quv dasturida talabalarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, tarixiy haqiqatni ilmiy asosda baholash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa yoshlarning Vatan taqdiriga daxldorlik hissini kuchaytirish, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda milliy manfaatlarni anglash darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Dasturda nazarda tutilgan ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar va baholash mezonlari xalqaro ta'lim amaliyoti talablariga mos keladi. Fan bo'yicha shakllantiriladigan kompetensiyalar talabalarning kasbiy va umummadaniy salohiyatini rivojlantirishga, mustaqil qaror qabul qilish va tarixiy jarayonlarga xolis baho berish qobiliyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

O'quv dasturining yana bir muhim jihati shundaki, unda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan yangilanish jarayonlari tarixiylik va vorisiylik tamoyillari asosida yoritilgan. Bu esa talabalarning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalarini anglashlariga va ularni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishlariga keng imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, «O'zbekistonning eng yangi tarixi» fanining mazkur o'quv dasturi mazmun jihatidan boy, ilmiy-nazariy va uslubiy tomondan puxta ishlangan, davlat ta'lim standartlari talablariga to'liq javob beradi. Dastur talabalarda chuqur tarixiy bilimlarni shakllantirish, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan mazkur o'quv dasturini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun tavsiya etish mumkin deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti **Raximov B.E.**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI USLUBIY KENGASHINING 2026-YIL
1-IYUN №10-SONLI YIG'ILISH BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

QATNASHDILAR: Tarix fakulteti uslubiy kengashi a'zolari.

Kun tartibi:

6. Har xil masalalar.

1. 2026-2027-o'quv yillarida Tarix fakulteti talabalariga o'quv reja asosida o'tiladigan fanlarning o'quv va ishchi dasturlarini tasdiqlash.

1.1 O'zbekiston tarixi kafedrasi professor-o'qituvchilarilari tomonidan universitetning tarix fakulteti, tarix yo'nalishi talabalariga o'tiladigan *barcha* fanlari uchun tayyorlangan o'quv va ishchi dasturlarni tasdiqlash va o'quv jarayoniga tavsiya etish to'g'risida.

ESHITILDI: Fakultet kengashi raisi R.B.Abriyev – o'quv dasturlari universitet rektorining 2026-yil 22-apreldagi 195-ij buyrug'i ijrosini ta'minlash asosida talabalar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmuni amaldagi davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida shakllantirilgan. Dasturda fanning maqsad va vazifalari, mavzularning mantiqiy izchilligi, auditoriya va mustaqil ta'lim soatlari hamda talabalarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar aniq belgilangan. O'quv dasturining mazmuni tarix fanining zamonaviy yondashuvlari asosida tuzilgan bo'lib, unda tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, manbalar bilan ishlash, tarixiy voqea-hodisalarni qiyosiy o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mavzularning ketma-ketligi talabalarning nazariy bilimlarini bosqichma-bosqich kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur o'quv dasturlari ilmiy-metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan bo'lib, tarix yo'nalishi talabalarini tayyorlash talablariga to'liq javob beradi. Ushbu o'quv dasturini o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SO'ZGA CHIQDILAR: O'quv qo'llanma borasida professor-o'qituvchilarlardan B.E.Ergashev, I.M.Saidov, N.O'.Xolmatov va boshqalar fikr mulohazalar bildirib, dasturda seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari va baholash mezonlarining kiritilgani talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini oshirishini ta'kidladilar. So'zga chiquvchilar o'quv dasturda tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati fan mazmunini chuqur o'zlashtirishga xizmat qilishini ta'kidlab, o'quv dasturlarini o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etdilar.

QAROR QILINDI:

Fakultet kafedralari professor-o'qituvchilari tomonidan *barcha* fanlardan tayyorlangan o'quv va ishchi dasturlar[illegible] o'quv jarayoniga tavsiya etilsin.

Tarix fakulteti kengashi raisi: **R.B.Abriyev**

Kengash kotibi: **J.Djurayev**